



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATNI SHAKLLANTIRUVCHI TOPSHIRIQLAR

Xolmatova G.I.

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti "Pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: o'qitish, mashg'ulot, o'qituvchi, o'quvchi faoliyati, hamkorlikda o'qitish, ijodkorlik, ijodiy fikrlash, tafakkur, tasavvur, ijodiy topshiriqlar, qobiliyat.

Ключевые слова: обучение, обучение, педагог, деятельность учащихся, совместное обучение, творчество, творческое мышление, мышление, воображение, творческие задачи, способности.

Key words: teaching, learning, teacher, student activities, collaborative learning, creativity, creative thinking, thinking, imagination, creative tasks, abilities.

Резюме: Maqolada qanday qilib o'quvchilarda ijodkorlikni uyg'otish lozimligini, o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish yo'llari, zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida o'quvchilar ijodiy jarayonni tashkil etish usullari, yo'llari va samaradorligi haqida fikrlar yuritilgan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirish muhokama qilindi.

Резюме: В статье рассматриваются способы пробуждения творческих способностей учащихся, пути развития творческой активности учащихся, методы, способы и эффективность организации творческого процесса учащихся на основе современных образовательных подходов, обсуждается целенаправленное развитие творческих способностей учащихся начальной школы.

Summary: The article discusses how to awaken creativity in students, ways to develop creative activity in students, methods, ways and effectiveness of students' creative process based on modern educational approaches. purposeful development of students' creative abilities was discussed.

Istiqlol tufayli xalqimiz yangi tarixiy davrga qadam qo'ydi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimiga, jumladan, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning maqsad va vazifalariga yangicha yondashishni taqozo etadi. "Ta'lim to'g'risida"gi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining yangi darsliklar avlodini yaratish to'g'risidagi qarori va talablaridan kelib chiqib, boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan yangi ona tili darsliklari nashr qilinmoqda. Ushbu darsliklar oldiga bir qator talablar qo'yilmoqda. Darsliklarning yangi avlodi, avvalo, unda berilgan o'quv topshiriqlari o'quvchini faol ishlashga, shuningdek, mustaqil va ijodiy fikr yuritishga o'rgatadigan shaklda tuzilmog'i zarur.

Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod darsliklari bilan ishlay boshladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish va yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi. "4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytilish noto'g'ri.

Yangi yondashuvni qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faollikni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish muammosi ko'p qirrali pedagogik-psixologik ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biridir. Ijodkorlik – faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan tortib, to namoyon bo'lishigacha jarayonni o'z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi, ilgari maqsad qilib qo'yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisida bilish jarayoni ijodiy faoliyat natijasida yuz beradi. O'quvchining berilgan topshiriqni bajarish jarayonida izlanishi, muammo uchun yechim topishga harakat qilishi, shaxslararo o'zaro hamkorlikka kirishishi unda ijodiy faoliyatning namoyon bo'lishi uchun turtki hisoblanadi. Aynan, berilgan topshiriqning aniq maqsadga yo'naltirilganligi, fikrlash va mushohada yuritishni talab etganligi, oldindan rejalashtirilgan, me'yor va mezonlarga ega bo'lganligi, o'quvchida o'z-o'zini anglagan faoliyatga zaruriyatini paydo qiladi.

Bu esa o'quvchida:

- atrof olam obyektlari va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirish;
- ta'lim samaradorligini vujudga keltirish,
- faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar badiiy ijod qilishni juda yaxshi ko'radilar. Bu bolaga o'z shaxsiyatini eng to'liq erkin shaklda ochib berishga



nostandart echimlarga bo‘lgan didni, ahamiyatsiz fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan emas, balki yangi va g‘ayrioddiy narsalarni idrok etishga tayyorlikni rivojlantirish, ulardan foydalanish va amalga oshirish istagi bilan yaratilgan ijodiy muhitni yaratishdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta‘lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo‘nalishlarini izlanuvchi ta‘lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta‘limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan o‘quvchilarda ijodkorlik, ijodiy faoliyatni rivojlantirish lozimligi kun tartibidagi muammo bo‘lib qoldi. Zero, 1-4 sinf o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olish, ta‘limni samarali tashkil etishda darslarni noan‘anaviy tarzda o‘tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish ularni har tomonlama yetuk bo‘lishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Boltayeva Sh.T., Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi. Zamonaviy ta‘lim jurnali 2017 y 6-son.
2. Dilova N.G. O‘quvchilarning shaxsiy sifatleri –pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili. Science and Education. (2021)
3. N.G. Dilova Ajdodlar merosini o‘rganish asosida talabalarni shaxslararo munosabatga tayyorlash “Ta‘lim va innovatsion tadqiqot lar” xalqaro ilmiy metodik jurnal. 2021 5 son.